
VILOYAT HOKIMINING YaNGI YIL BAYRAM TABRIGI VA SOVG'ALARI O'Z EGALARIGA TOPSHIRILDI

Yangi yil bayrami munosabati bilan uzoq yillar mobaynida turli sohalarda o'zining mashaqqatli mehnatlari bilan tumanning ijtimoiy hayotiga munosib hissasini qo'shgan nuroniylar va mehnat faxriylari xolidan xabar olindi.

Bugun tuman hokimi S. Soliev hamda mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'i o'rinbosari T. Abdurahmonov tumanimizda istiqomat qilayotgan Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi M. Sulaymonovning xonadoniga tashrif buyurib viloyat hokimi Xayrullo Bozorovning Yangi yil tabriklarini o'qib eshittirishdi hamda bayram sovg'asini taqdim etdilar.

O'z navbatida bunday yuksak e'tibordan mamnun bo'lgan faxriylar yurtimiz tinchligi uchun duoga qo'l ochdilar.

2022-12-30 11:42:29